<i>Nasirova Shahlo Qutbiddinovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda media ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xosligi	710
<i>Mahmudjanova Ro'za Mahmudjan qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari..... 714 Aslanova Malohat Akramovna
	Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida..... 718 Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi
	Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish 721 Ne'matova Diyora Dilshod qizi
	Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati 725 Pirimova Nargiza Adilovna
	Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixologik va pedagogik samaradorligi..... 728 Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi
	Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari 733 Otahanova Manzura G'ofurovna
	Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context..... 736 Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna
	Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni . 749 Altibayeva Malika Kuvandikovna
	Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari 752 Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi
	Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar 757 Shukurova Nargiza Ikramovna
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati 762 Xudoyberdiyev Sh. M.
	Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari..... 766 Esanbekova Fotima G'ayratjonovna
	Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин) 770 Багирова Паринисо Бобировна
	Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar..... 775 Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi
	Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili 780 Toshtemirova Nigora Ibrohimovna
	Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari 784 Tovoshova Ozoda Akmal qizi
	Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish..... 789 Kaxarova Ozoda Abdimominovna
	Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri... 793 M. B. Pulatova
	Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili 796 Maraimova Muxtabar Pulatovna
	Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari..... 801 Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish	818
<i>Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	



Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish	896
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
Sultonova Nurxon Anvarovna	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari	907
Tolipova Shohista Quدرات qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli	911
Turg'unova Gulzoda Botir qizi	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari	916
Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari	919
Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari	923
Xalikova Zaxro Mirshadmanovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi	927
Yoqubova Gulhayo Erkin qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	931
Bilolov Inomjon O'ktamovich	
Karatening kelib chiqish tarixi	934
Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar	937
Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abdulolim qizi	
Родительские установки и развитие личности	941
Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи	

ZAMONAVIY JAMIYATDA EKOLOGIK MEDIAMADANIYATNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Marziyayev Janabay Kalibayevich
Qoraqalpoq davlat universiteti

ORCID: 0000-0001-6837-0102

Annotatsiya: Zamonaviy axborot jamiyatida ekologik mediamadaniyatning tutgan o'rnini, uning tarkibiy qismlari hamda shakllanish tamoyillari yoritiladi. Mediamadaniyat tushunchasining nazariy asoslari tahlil qilinib, ekologik mediasavodxonlik, ekoetika va axborot ekologiyasi kabi komponentlarning ijtimoiy ahamiyati asoslab beriladi. Antroposen davrida O'zbekistondagi ekologik vaziyat, xususan, Orol dengizi fojiasi sharoitida aholining mediamadaniyatini yuksaltirishning strategik zarurati ko'rsatib o'tiladi. Yakunda mediamadaniyatni ekologik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, media makonda feyk xabarlariga qarshi kurashish hamda sifatli ekologik kontentni rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Antroposen, ekoetika, axborot ekologiyasi, mediasavodxonlik, Orol fojiasi, grinvoshing, barqaror rivojlanish.

Abstract: The role of environmental media culture in modern information society, its structural components, and principles of formation are examined. The theoretical foundations of the concept of media culture are analyzed, and the social significance of such components as environmental media literacy, eco-ethics, and information ecology is substantiated. In the context of the Anthropocene, the environmental situation in Uzbekistan, particularly the Aral Sea tragedy, highlights the strategic necessity of enhancing the population's media culture. The article concludes with practical recommendations for harmonizing media culture with environmental values, combating fake news in the media space, and developing high-quality environmental content.

Key words: Anthropocene, eco-ethics, information ecology, media literacy, Aral tragedy, greenwashing, sustainable development.

Аннотация: Рассматривается роль экологической медиакультуры в современном информационном обществе, её структурные компоненты и принципы формирования. Анализируются теоретические основы понятия медиакультуры, раскрывается социальная значимость таких компонентов, как экологическая медиаграмотность, экоэтика и экология информации. В условиях экологической ситуации в Узбекистане, в частности в контексте трагедии Аральского моря в эпоху Антропоцена, обосновывается стратегическая необходимость повышения медиакультуры населения. В заключении предлагаются практические меры по гармонизации медиакультуры с экологическими ценностями, противодействию фейковым новостям в медиапространстве и развитию качественного экологического контента.

Ключевые слова: Антропоцен, экоэтика, экология информации, медиаграмотность, Аральская трагедия, гринвошинг, устойчивое развитие.

KIRISH

Ekologik mediamadaniyat – bu media kommunikatsiyalari va ekologik ong kesishmasida vujudga keladigan madaniyat sohasi hisoblanadi. Bu shunchaki atrof-muhit holati haqida ma'lumot berish emas, balki jamiyat, axborot muhiti va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan qadriyatlar, bilim va ko'nikmalarning murakkab tizimidir. Keng ma'noda, u ekologik axborotni qanday yaratishimiz, undan qanday foydalanishimiz va tarqatishimizni, shuningdek, axborot muhitining o'zi bizning ruhiy va ijtimoiy farovonligimizga qanday ta'sir qilishini o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda, ayniqsa, Antroposen davrida media voqelikni shakllantirishning asosiy quroliga aylandi. Mediamadaniyat insonlarning o'zaro munosabatlarini o'zgartiradi va uning ongiga o'ziga xoslik olib kiradi. Shuningdek, mediamadaniyat insonning umumiy madaniyatga ommaviy axborot vositalari orqali erishishida hamda ularning madaniy ko'nikmalari shakllanishida katta ahamiyatga ega.



O'zbekistonda ekologik mediamadaniyat, asosan, mintaqadagi ekologik muammolar, xususan, Orol dengizining qurishi bilan bog'liq masalalar tufayli strategik ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, ekologik mediamadaniyat barcha ommaviy axborot vositalari kanallari orqali ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni tarqatish, auditoriyani birlashtirish va insoniyatning xavfsiz hayot kechirishini ta'minlash vazifasini bajaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mediamadaniyat tushunchasi zamonaviy axborot jamiyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, N. B. Kirillova 2005-yilda chop etilgan tadqiqotlarida mediamadaniyat modernizatsiya jarayonlari bilan bog'liq holda tahlil qilib, uning jamiyat ongiga ta'sirini asoslab beradi. Shuningdek, uning 2008-yildagi "Mediakultura: teoriya, istoriya, praktika" asarida mediamadaniyatning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ijtimoiy funksiyalari kompleks yoritilgan. Muallif mediamadaniyatni jamiyatning madaniy rivojlanish darajasini belgilovchi muhim omil sifatida baholaydi.

Mediamadaniyatning falsafiy jihatlarini V. A. Vozchikov va M. G. Kashkina tomonidan keng tahlil qilingan. Vozchikov mediamadaniyatni axborot jamiyatida shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishiga ta'sir etuvchi omil sifatida izohlaydi, uning ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. Kashkina esa mediamadaniyatni falsafiy diskurs doirasida ko'rib chiqib, uning kommunikativ va semantik xususiyatlarini ochib beradi. O. N. Astafyeva tadqiqotlarida esa mediamadaniyat axborot-kommunikativ makonning shakllanish tamoyillari bilan bog'liq holda tahlil qilinib, uning ijtimoiy integratsiyadagi roli asoslab berilgan.

Ekologik yo'nalishdagi mediamadaniyat masalalari zamonaviy ilmiy adabiyotlarda alohida e'tibor markaziga aylangan. L. A. Koxanova 2007-yildagi tadqiqotida ekologik jurnalistika, PR va reklama vositalarining ekologik ongni shakllantirishdagi o'rnini yoritadi. Muallif ekologik axborotni uzatishda mas'uliyat, ishonchlik va etik me'yorlarga rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Shu jihatdan ekologik mediamadaniyat jamiyatda barqaror rivojlanish g'oyalari ilgari surishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston kontekstida ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari N. Qosimova, S. Sulaymanova va Ya. Mamatova tadqiqotlarida yoritilgan. Qosimova 2018-yilda OAVning barqaror rivojlanishdagi rolini tahlil qilib, jurnalistikaning ta'limiy va ijtimoiy funksiyalarini asoslab beradi. Uning 2016-yildagi ishlarida esa global iqlim o'zgarishi muammolari va jurnalistikaning bu jarayondagi o'rnini ochib berilgan. Sulaymanova va Mamatova ekologik jurnalistika rivojlanishini tahlil qilib, uning barqaror rivojlanish strategiyalariga moslashuvi zarurligini ko'rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ekologik mediamadaniyat inson va jamiyat o'rtasidagi axborot almashinuvining muhim mexanizmi sifatida talqin etiladi. J. K. Marziyayev 2024-yilda chop etilgan o'quv qo'llanmasida ekologiya va jurnalistika o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab, ekologik axborotning ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar ekologik mediamadaniyatni shakllantirish zamonaviy jamiyatda nafaqat axborot tarqatish, balki ekologik ongni rivojlantirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ekologik mediamadaniyatning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish uchun tizimli yondashuv hamda qiyosiy-mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Mazkur usullar yordamida "mediamadaniyat" va "axborot ekologiyasi" tushunchalarining mazmun-mohiyati ilmiy manbalar asosida qiyoslandi. Shuningdek, O'zbekiston media makonida ekologik muammolar va Orol fojiasining yoritilish tendensiyalarini aniqlashda kontent-analiz metodi qo'llanildi. Olingan natijalar sintez va umumlashtirish usullari orqali qayta ishlanib, aholining mediamadaniyatini yuksaltirishga qaratilgan amaliy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi axborotlashgan jamiyatda mediamadaniyat tushunchasi inson faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oluvchi keng qamrovli hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini tahlil qilish, avvalo, uning etimologik va nazariy asoslariga to'xtalishni taqozo etadi.

Media (lotincha "media", "medium" so'zidan olingan bo'lib – vosita, bog'lovchi) degan ma'noni bildiradi. Buning ichida "mass culture" (ommaviy madaniyat), "mass media" (ommaviy axborot vositalari) terminlari ham ma'nodosh sifatida qo'llanilib kelinmoqda. Bu axborot jamiyatining madaniy tipi va umumiy madaniyat tushunchasiga kiradi hamda nashrlar: kitob, gazeta, jurnal, kino, radio va televideniye orqali namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, internet tarmoqlari va insonlarni atrof-muhit bilan bog'lovchi boshqa vositalar ham borki, ular axborot yetkazib beradi, hordiq bag'ishlaydi, targ'ibot-tashviqot qiladi, insonlarning dunyoqarashi va fikrlariga ta'sir ko'rsatadi^[1, 400].

Bularga yaqin terminlar sifatida "axborot madaniyati" (information culture), "video madaniyat" (video culture), audiovizual madaniyat (audiovisual culture), "medium" tushunchalari ham mavjud.

Mediamadaniyat insonning umumiy madaniyatga ommaviy axborot vositalari orqali erishishida va ularning madaniy ko'nikmalari shakllanishida ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bugungi jamiyatda mediamadaniyat inson faoliyatining barcha bosqichlarida ko'zga tashlanadi. U insonlarning o'zaro munosabatlarini o'zgartiradi, uning ongiga o'ziga xoslik olib kiradi. Biroq u juda murakkab hodisa hisoblanib, tabiat, faoliyat, odob-axloq va madaniyat kategoriyalari bilan uzviy bog'liqdir. Zamonaviy axborot davriga texnikaning kirib kelishi madaniyat maydonining xarakterini o'zgartirib yuboradi. Texnika yordamida yaratilgan asarlar mediamadaniyat mahsullari hisoblanadi.

Bugungi kunda mediamadaniyatning inson va jamiyatning ijtimoiy hayotiga ta'siri aniqlangan. Mediamadaniyat ommaviy axborot vositalari yordamida insonning ijtimoiy hayot faoliyatida qatnashishiga ko'maklashadi, o'zini anglashi va ijtimoiy rollarni aniqlab olishi uchun ham yo'l ko'rsatadi.

Tizimlilik va umumiylik mediamadaniyatning tayanch xususiyati hisoblanadi, bu media muhitda jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy xarakterini saqlab qoladi. Shunga qaramay, ushbu umumiylikni buzuvchi bir qator omillar mavjud. Ular mediasferaga kirib borishda, ma'lumotlar va yangiliklarni tarqatishda cheklangan imkoniyatlar yaratadi. Ommaviy mediamadaniyat aloqalari yo'qolganda, mediamadaniyat komponentlari ijtimoiy rivojlanishning muhim masalalarini hal qilishda jamiyatni birlashtirish funksiyasini yo'qotadi ^[2].

Mediamadaniyatning barcha tarkibiy qismlari bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi:

- mediamadaniyatning texnik darajasi moddiylovga va mediakontentning vaqt hamda makon bo'ylab tarqalishiga ta'sir qiladi;
- kommunikativlik esa mediamadaniyatni ommaviy auditoriyaga yo'naltiradi ^[2].

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, sun'iy yo'ldosh va raqamli televideniye, kompyuter va mobil aloqa, internet va boshqalar media muhitni transformatsiyaga uchratadi. Shu bilan birga, ular ommaviy ong ko'rinishiga, an'anaviy madaniyat, kutubxona, kinoteatr, muzeylar hamda dramatik teatrlarning faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Mediamadaniyat XXI asrda vizual va verbal imkoniyatlar bilan bir qatorda kommunikatsiyaning kinestetik imkoniyatlaridan ham foydalana boshladi ^[3]. Mediamadaniyatning inson faoliyati va jamiyat rivojlanishi jarayonidagi roli ortib borayotganini ta'kidlash o'rinli. Uning jadal rivojlanishi axborot vositasi sifatida ijtimoiy ongga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda, insonlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirmoqda. Zamonaviy axborot imkoniyatlari inson uchun ekran bilan interaktiv tarzda shaxsiy muloqot qilish va o'zining shaxsiy ijodiy g'oyalarini amalga oshirish uchun ham ulkan imkoniyatlar yaratib berayotganini inkor etib bo'lmaydi.

Zamonaviy mediamadaniyatning tadqiqot yo'nalishi mediasiyosat va mediamenedjment, mediya ta'lim nazariyasi va amaliyoti, axborot jihatidan rivojlangan va tushunuvchi insonni shakllantirish bo'lib hisoblanadi ^[4, 496].

Zamonaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanish darajasi inson ongiga har tomonlama ta'sir etadi. Mediamadaniyat axborot davrining o'ziga xos ijtimoiy instituti hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, ekologik mediamadaniyatning amaliy ko'rinishini quyidagi asosiy komponentlar orqali ifodalash mumkin:

1. **Ekologik mediasavodxonlik:** OAVning ekologik mavzulardagi xabarlarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilish qobiliyati. Bu ilmiy faktlarni manipulyatsiyadan ajratish va "grinvoshing"ni (brendni ekologik sifatida noto'g'ri pozitsiyalash) bilishni anglatadi.
2. **Kommunikatsiyalarda ekoetika:** Tabiiy ofat yoki muammolarni yoritishda odob-axloq normalariga amal qilish. Bu fojialar ortidan "xayp" quvishdan voz kechish va konstruktiv yechimlar topishga yo'naltirilganlikdir.
3. **Axborot ekologiyasi (digital ecology):** Ongni "axborot chiqindilari", ma'lumotlarning haddan tashqari ko'pligi va zaharli kontentdan himoya qilish. U ruhiy toliqishning oldini olish uchun mediadan ongli ravishda foydalanishga chaqiradi.
4. **Ekologik kontent:** Sifatli ekologik jurnalistika, hujjatli kino, ma'rifiy bloglar va ijtimoiy reklama bo'lib, ular sayyoraga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni shakllantiradi.

Paydo bo'lish darajalari:

1. **Shaxsiy daraja:** Axborot iste'moli gigiyenasining individual ko'nikmalari va shaxsning ekologiya haqida tarmoqqa repost qilishi yoki yozishi uchun shaxsiy mas'uliyati.
2. **Professional daraja:** Jurnalist, PR mutaxassisi va bloggerlarning ekologik ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgarligi.
3. **Global daraja:** Barqaror rivojlanish va bioxilma-xillikni saqlashga qaratilgan umumjahon media kun tartibini shakllantirish.

Bu bugungi kunda nega muhim? Ekologik mediamadaniyat bir necha muhim vazifalarni bajaradi:

1. **Vahimani (apachilikni) yengish:** Odamlarni "oxirzamon" deb qo'rqitish o'rniga, to'g'ri mediamadaniyat harakat algoritmlarini (chiqindilarni saralab yig'ish, ongli ravishda iste'mol qilish) taklif etadi.
2. **Feyklarga qarshi kurashish:** Ekologik mavzular ko'pincha siyosiy va iqtisodiy manipulyatsiya obyekti bo'lib xizmat qiladi. Mediamadaniyat ma'lumotlarni tekshirish uchun vositalar beradi.



Fikrlashning ekologiyaga moslashuvi – ekologik qadriyatlarining “moda tendensiyasi”dan asta-sekin xulq-atvorning tabiiy normasiga aylanishi.

Axborot va kompyuter texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi uning salbiy ta'sirini ham oshirib bormoqda.

Buning uchun, ya'ni axborotning salbiy ta'sirini kamaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

1. Kutubxona, muzey, arxivlarni kompyuterlar bilan ta'minlash;
2. Gumanitar va ijtimoiy fanlar bo'yicha barcha kirishi erkin bo'lgan ma'lumotlar bazasi bankini yaratish lozim;
3. Davlat hududlarida axborot-ko'ngilochar, madaniy-axborot tarmoqlarini rivojlantirish;
4. Jamiyatning, davlatning va insonning axborot xavfsizligini ta'minlash ^[5, 448].

Madaniyat inson tajribasi bilan shakllangan tushuncha bo'lsa, ikkinchi tomondan bu tajribaning tarqalish usullari va shakllaridir. Internet axborotlarni saqlash va yetkazib berish zamonaviy madaniyatning muhim elementlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Global tarmoq madaniy tajribani saqlovchi usul bo'libgina qolmay, madaniy kontentni tashkil etish usuli bo'lib ham hisoblanadi ^[6]. Ya'ni muloqot o'rnatish madaniyati shakllanadi, unda har kim o'z ovozigaga ega bo'ladi.

Bugungi kunda Orol dengizining qurishi bilan bog'liq mintaqaviy muammolar, global iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va tuzli chang bo'ronlarining tez-tez takrorlanishi kabi ekologik inqirozlar mediamadaniyatga bo'lgan ehtiyojni yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu masalalar ekologik mediamadaniyatning shakllanishi strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib bermoqda. Shu sababli, dastlab media muhitida milliy kontentni rivojlantirish va aholining axborot iste'moli madaniyatini muntazam shakllantirish zarurati sezilmoqda.

Shuningdek, aholining mediasavodxonligini oshirish, odamlarning o'z hududlaridagi ekologiyaga bog'liq masalalar, xususan, havo yoki suv sifati haqidagi ma'lumotlarni operativ tarzda olishi va tekshirishi kabi masalalar dolzarbdir.

Ekolog olimlar va keng jamoatchilikni birlashtiruvchi media-platformalarni yaratish lozim.

Ekologik mediamadaniyat – bu zamonaviy insonga xabardor bo'lish, shu bilan birga, raqamli dunyoda psixologik salomatlikni saqlash va tabiat farovonligi yo'lida harakat qilishga yordam beradigan o'ziga xos “filtr”dir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ekologiya bilan bog'liq muammolar to'planishining sabablaridan biri sifatida aholining ekologik mediamadaniyati pastligi hisoblanadi. Ayniqsa, mediasfera tizimi faoliyati darajasining pastligi bunga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ekologik mediamadaniyat – bu barcha ommaviy axborot vositalari kanallari orqali ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan ma'lumotlarning tarqatilishi, ya'ni atrof-muhit holati, xabardor qilish, bilim berish va tarbiyalash, auditoriyani birlashtirish orqali insoniyatning xavfsiz hayot kechirishini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekistonda mustaqillikka erishilgan dastlabki kunlardan Orol dengizi qurishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda ekologik mediamadaniyatni rivojlantirish – mintaqadagi biologik muvozanatni saqlash va aholi salomatligiga salbiy ta'sirlarning oldini olishda axborot nazorati hamda auditoriyani ongli harakatga birlashtiruvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кириллова, Н. Б. Медиасреда российской модернизации / Н. Б. Кириллова. – М.: Академический проект, 2005.
2. Возчиков, В. А. Философия образования и медиакультура информационного общества [Электрон ресурс]. – Режим доступа: <http://www.dslib.net>
3. Кашкина, М. Г. Медиакультура информационного общества в аспекте философского дискурса [Электрон ресурс]. – Режим доступа: <http://do.gendocs.ru>
4. Кириллова, Н. Б. Медиакультура: теория, история, практика / Н. Б. Кириллова. – М.: Академический проект, 2008.
5. Кириллова, Н. Б. Медиакультура: от модерна к постмодерну / Н. Б. Кириллова. – М.: Академический проект, 2005.
6. Астафьева, О. Н. Медиакультура и некоторые принципы формирования информационно-коммуникативного пространства [Электрон ресурс]. – Режим доступа: <http://do.gendocs.ru>
7. Qosimova, N. O'zbekiston ommaviy axborot vositalari barqaror rivojlanish manfaatlari yo'lidagi ta'lim sohasida hamkor sifatida: o'quv qo'llanma. – T.: YUNESKO, 2018.
8. Сулайманова, С., Маматова, Я. Экологическая журналистика Узбекистана в контексте устойчивого развития: учебное пособие. – Т.: Extremum-press, 2016.
9. Qosimova, N. Global iqlim o'zgarishi va jurnalistika: o'quv-amaliy qo'llanma. – T.: Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi, 2016.
10. Коханова, Л. А. Экологическая журналистика, PR и реклама / под ред. Я. Н. Засурского. – М.: Изд-во Юнити, 2007.
11. Marziyayev, J. K. Ekologiya ham jurnalistika: o'quv qo'llanma. – Nókis: ILIM NUR, 2024.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.